



UDK: 811.133.1512

Nodirjon OTAQULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: nodirorient@gmail.com

O'zMU professori, f.f.d. D.Djafarova taqrizi asosida

FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI KOLLOKVIAL FRAZELOGIZMLARNING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Mazkur maqola fransuz va o'zbek tillarida kollokvial frazeologiya masalalari bo'yicha tadqiqotchilarining mavjud ishlari tahlilini o'rganishga bag'ishlangan. Fransuz va o'zbek tillaridagi kollokvial frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinib, ular o'z navbatida, fransuz va o'zbek kollokvial lug'atining muhim qatlamini tashkil qilishi hamda so'zlashuv nutqida sarmahsulligi, faolligi bilan ko'zga tashlanishi o'rganilgan. Shu bilan birga, ikkala tillar tizimida kollokvial frazeologizmlarning o'rni aniqlangan.

Kalit so'zlar: Kollokvial, frazeologizm, emotsional, ekspressiv, so'zlashuv tili, adabiy so'zlashuv, betakalluf so'zlashuv.

ОСОБЕННОСТИ КОЛЛОКВИАЛЬНЫХ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ В ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Настоящая статья посвящена анализу существующих исследований, проведённых по вопросам кolloквиальной фразеологии во французском и узбекском языках. В работе рассматривается сравнительный анализ кolloквиальных фразеологических единиц этих двух языков. Отмечается, что указанные фразеологизмы составляют важный слой как французской, так и узбекской кolloквиальной лексики, а также выделяются своей активностью и продуктивностью в разговорной речи. Наряду с этим, в статье определяется место кolloквиальных фразеологизмов в системе обоих языков.

Ключевые слова: Кolloквиальный, фразеологизм, эмоциональный, экспрессивный, разговорная речь, литературно-разговорный стиль, фамильярная речь.

FEATURES OF COLLOQUIAL PHRASEOLOGISMS IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article is devoted to the analysis of existing studies on colloquial phraseology in the French and Uzbek languages. It presents a comparative analysis of colloquial phraseological units in both languages. The study highlights that these phraseologisms form an important layer of the colloquial vocabulary in both French and Uzbek and stand out for their productivity and frequency in spoken language. Furthermore, the article defines the role and position of colloquial phraseological units within the linguistic systems of both languages.

Key words: Colloquial, phraseologism, emotional, expressive, spoken language, literary colloquial, familiar speech.

Kirish. Frazeologizmlar har qanday tilning boyligi va milliy-mental xususiyatlarini ifoda etuvchi muhim birliklar hisoblanadi. Ayniqsa, zamonaviy fransuz tilida so'zlashuv uslubiga xos pasaytirilgan ya'ni kollokvial, subkollokvial va argotik frazeologik birliklar juda faol qo'llaniladi. Ular turli ijtimoiy qatlam, yosh va submadaniyat vakillarining nutqida jonli ifodalar sifatida namoyon bo'ladi.

Kollokvial, subkollokvial va argotik frazeologik birliklar - rasmiy-adabiy uslub doirasiga kirmaydigan, ko'proq og'zaki nutqda, yoshlar yoki mahalliy muhitda ishlatiladigan, ekspressiv va ko'pincha yumoristik ma'noga ega frazalardir. Ular kollokvial, subkollokvial va argotik xarakterga ega bo'lishi mumkin.

Kollokvial leksikaning turlari va ularning farqi haqida so'zlaydigan bo'lsak, kollokvial leksikaning ikki turi, ya'ni kollokvial ma'noga ega so'zlar - umumiy lug'atda mavjud so'zlar bo'lib, so'zlashuv tilida boshqa, odatda, erkinroq ma'no kasb etadi. Asl kollokvial so'zlar - aynan so'zlashuv tili uchun xos yaratilgan so'zlar, ya'ni ular so'z yasash orqali paydo bo'ladi. Birinchi turi mavjud so'zning ma'nosini o'zgartiradi, ikkinchisi esa yangidan so'z yasash orqali yaratiladi.

Fransuz va o'zbek tillaridagi kollokvial leksikaning o'xshash va farqli jihatlarini kuzatadigan bo'lsak, bular, ya'ni so'z yasash usullari hisoblanib, fransuz va o'zbek tillarida

neytral vokabulyarni yaratish uchun kollokvial so'z yasashning o'xshash usullari qo'llaniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumnazariy jihatdan mazkur tadqiqot xorij va o'zbek lingvistikasining tadqiqotlariga tayanadi. Xususan, bizning faktik materialni tanlash bo'yicha ishimiz shu bilan osonlashdiki, lingvistika frazeologizmlarni tanib olishning va ajratishning qulay metodlarini ishlab chiqqan. So'zlarning o'zaro qo'shilishi bilan bog'liq masalalarning yechimiga Sharl Balli [1], Y.M. Skrebnev [10], V.A.Xomyakov [11], L.Calvet [14], J.-P. Colin [15], D.Francois-Geiger [16], F. Gadet [17], I.G. Rey [19] kabi lingvistlar va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

Til mohiyatlarini pragmatik tavsiflashga A.Mamatov [3], Sh.Safarov [9] va boshqalarning ishlari bag'ishlangan. Xorij lingvistikasi pragmatik aspektni o'rganishga katta e'tibor qaratadi, bu ushbu muammoga bag'ishlangan ishlarning katta miqdorining paydo bo'lishida aks etdi: F.Armengaud [12], O.Ducrot [13], F.Recanati [18], J.R.Searle [20] va b.

Jahon tilshunosligida jonli og'zaki munosabatning tilini o'rganishga sezilgan intilishni hamda fransuz, o'zbek tillarida frazeologizmlar hosil qilishning sezilarli darajadagi tarqalganligini hisobga olib, bu birliklarni ancha mufassal ko'rib chiqishning zaruriyati shak-shubhasiz bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tilshunos olim V.D.Devkinning ta'kidiga ko'ra, "kollokvialistika" atamasi

kundalik norasmiy tilni o'rganishni anglatadi yoki odatda "so'zlashuv" nutqi deb ataladi [2]. Kollokvialistika termini Devkin tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan [6].

Kollokvial frazeologizmlar va ularning nutqiy munosabatdagi o'rni tadqiq qilish jarayonida A.V.Kunningning frazeologik identifikatsiya va frazeologik tahlil metodi, lug'aviy definitsiyalar va kontekstli tahlil metodlari bilan birgalikdagi komponentli tahlil metodi qo'llanildi [4]. A.D.Rayxshteyn tomonidan ishlab chiqilgan frazeologik birliklarning qo'llanilishi hamda stilistik bo'yqadorligi haqidagi ma'lumotlarni aniqlashtirish maqsadida semaviy tahlil metodidan foydalanib kollokvial frazeologizmlarning semantik strukturasini aniqlandi.

So'zlashuv tilining o'rni haqida gapirilganda, so'zlashuv tili umummilliy tilning kichik funksional tizimlaridan biri hisoblanishi haqida ta'kidlashimiz zarur. Bu tizim adabiy-so'zlashuv va betakalluf-so'zlashuv variantlarini o'z ichiga oladi: adabiy-so'zlashuv — adabiy tilga yaqin, ammo suhbat uslubida qo'llanadigan nutq hisoblanadi, betakalluf-so'zlashuv — erkin, rasmiy bo'lmagan nutqni ifodalaydi. Bu ikki variant uchun ham umumiy jihat — munosabatning rasmiyligini belgilaydigan ishoralar yo'qligidir. YA'ni, nutqda erkinlik saqlanadi, bu kommunikantlar o'rtasidagi munosabatlar haddan tashqari rasmiy emasligini ko'rsatadi.

So'zlashuv tilining leksik tarkibini kollokvializmlar tashkil etadi. Kollokvializmlar — pastroq uslubiy darajadagi leksik birliklar bo'lib, ular so'zlashuv tili uchun xos va standart hamda substandart qatlamlar tutashgan nuqtada joylashgan bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Ekspressiv birliklar bilan bir qatorda so'zlashuv leksikasida kollokvial frazeologizmlar mavjud bo'ladi, ularning strukturasiga ekspressiv komponent kirmaydi. Kollokvial frazeologizmlar nominatsiyaning eng tejamli usuli hisoblanadi, o'zlarini ifoda planida anchagina lo'nda hamda mazmun planida hajmli namoyon qiladi, bu bilan zamonaviy inson munosabatining ehtiyojlarini qondiradi [5].

Hozirgi zamonaviy jamiyatda inson hayotini munosabatlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu holat turli xil hayotiy vazifalarni amalga oshirishda, jadal hayot sur'atlarini ta'minlashda va doimiy o'zaro muloqot ehtiyojini qondirishdagi zarurat bilan uzviy bog'liqdir. Yildan-yilga aloqalar miqdori ortishi, shuningdek, ularga bo'lgan ehtiyojni qondirishning yangi yo'llari paydo bo'lishi, tabiiyki, insonlararo kommunikatsiyaning verbal shakliga ham ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda so'zlashuv tiliga oid masalalarga bag'ishlangan tadqiqotlar soni sezilarli darajada o'sdi. Mazkur sohada olib borilayotgan izlanishlar lingvistikada kollokvialistika deb ataluvchi maxsus yo'nalishning shakllanishiga turtki berdi.

Kollokvial leksika, xususan, kollokvial frazeologizmlar muammolarini o'rganishda asosiy e'tibor ularning nutqiy munosabatdagi o'rni hamda so'zlashuv tilida qo'llanilishining pragmatik jihatlariga qaratiladi. Shuni qayd etish joizki, tilni harakatda o'rganish zarurligiga qaramasdan, uzoq vaqt mobaynida bu yo'nalish faqat og'zaki nutqda ishlatiladigan konstruksiyalarni aks ettiruvchi adabiyotlar yaratish yoki og'zaki so'z va iboralarning lug'aviy belgilarini tayyorlash bilan cheklanib kelgan. Tilning kundalik og'zaki muloqot sharoitidagi qo'llanilishini maxsus tadqiq etish esa nisbatan yaqin vaqtlarda, ya'ni o'tgan asr oxirlaridan boshlandi.

Kollokvializm atamasiga taalluqli masalalarni muhokama qilar ekanmiz, K.M. Ryabovanning quyidagi ta'rifini qo'llab-quvvatlaymiz: «Kollokvializmlar so'zlashuv sub'tilining tarkibiy qismi bo'lib, stilistik nuqtai nazardan biroz pasaytirilgan, estetik ma'no shkalasi bo'yicha neytral

qatlamdan keyin joylashgan leksik birliklar hisoblanadi» [8]. Bizning fikrimizcha, kollokvializmlar norasmiy muloqot sohasiga tegishli bo'lib, kollokvial leksika so'zlashuv nutqida ishlatiladigan barcha leksik birliklar emas, balki boshqa (yuqori) kommunikativ sohalarida qo'llanilishi maqbul bo'lmagan leksik birliklardan iborat. Shu nuqtai nazardan, Y.M. Skrebnev ta'kidlaydi: «Kollokvializmining spetsifik xususiyati uning boshqa tagtillarga tegishli bo'lgan matnlarda qanchalik tez-tez uchrashiga emas, balki kollektiv-subyektiv til tajribasi asosida aniqlanadigan ushbu matnlarda ularning qanday noo'rin qo'llanilishiga bog'liq» [10].

Kollokvializmlar adabiy-so'zlashuv tili leksikasining asosiy qismini tashkil etadi va ularning muhim xususiyati shundaki, ular stilistik jihatdan faqat biroz pasaytirilgan bo'ladi. Bu jihati bilan ular argo, jargon, sleng va vulgarizmlardan farq qiladi. Chunki mazkur nutq birliklari (argo, jargon, sleng va vulgarizmlar) stilistik nuqtai nazardan keskin pasaytirilgan bo'lib, uslubiy shkalada kollokvializmlardan keyingi pog'onada joylashgan. So'zning stilistik pasaytirilganligi muloqotdagi erkinlik darajasi, emotsionallik va ekspressiyaning ortishi bilan bog'liq bo'lib, bu so'zlashuvda ishlatiladigan iboralarning ham betakalluflik darajasining oshishiga olib keladi.

Emotsionallikni so'zlovchi tomonidan ta'riflanuvchi predmet yoki hodisaga nisbatan subyektiv baho berish qobiliyatini leksik birliklar orqali ifoda etish xususiyati sifatida baholash mumkin. Bu holatda so'zning emotsional nozik farqlari uning leksik ma'nosi tarkibiga kiradi. So'zlovchining xohishidan qat'i nazar, so'z har doim ma'lum darajada emotsionaldir. Tilning emotsional vositalari, o'z navbatida, doimo ekspressiv hisoblanadi, ammo ekspressiv vositalar har doim ham emotsional bo'lavermaydi [7].

Ekspressivlik emotsionallik kategoriyasiga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, uni oshirilgan ifodalilik yoki ba'zan leksik birlikning tasviriyligi sifatida ta'riflash mumkin. Shu nuqtai nazardan, V.D. Devkin kollokvializmlarni «kundalik so'zlashuv tilida qo'llaniladigan, tilning boshqa sohalarida ishlatilishi fakultativ va erkinlik bilan tavsiflanadigan leksik birliklar» deb hisoblaydi [2].

Fransuz tilida misollarni ko'rib chiqamiz: avoir la pèche — kayfiyati yaxshi bo'lmoq (s.so'z.: shaftoliga ega bo'lmoq); être à la bourre — kechikib ketmoq, vaqti tang bo'lmoq; se prendre un râteau — rad javobini olmoq (ishqiy munosabatda); avoir le seum — xafa bo'lmoq, (kayfim yo'q — jargonda).

O'zbekcha kollokvial frazeologizmlarga misollardan: yulduz sanamoq — bekorchilik bilan shug'ullanmoq; jigardan bo'lgan — pul haqida; miyaga jo qilmoq — yaxshilab uqib olmoq; tish tirnog'i bilan kurashmoq — qattiq xarakat qilmoq; qulog'iga quyib olmoq — miyasiga o'rmashtirib olmoq; bir qaynovi ichida — ishi fikrlashi qandaydir g'ayri tabiiy; dovdir; bir tupkaning tagida — juda uzoqda, ovloq yerlarda; it (eshak) sug'ormoq, ishi yo'q eshak sug'oribdi — bekor yurmoq; eshagidan tushovi qimmatga tushdi — natija sarf harajatni qoplashga ham yetmaydi; eshagi loydan o'tdi — ishi bitdi; eshakday o'jar — o'ta qaysar; qo'yday tihir — o'ta qaysar; qo'ydek yuvvosh — o'ta darajada yuvvosh; g'ozdek mag'rur — mensimagan holda, kekkaygan holatda yurish; tili osilib qolmoq — juda, o'ta darajada charchamoq; tushini suvga aytsin — behuda xomtama bo'lmasin, o'ylaganidek bo'ladi deb umid qilmasin.

Kollokvial frazeologik birliklarning xususiyatlarini qarab chiqadigan bo'lsak quyidagi holatlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin:

ifodaviy kuch: pasaytirilgan frazeologizmlar sodda, ta'sirli va so'zlashuvchi shaxsning holati yoki munosabatini aniq ifodalaydi;

ekspressivlik: ular hissiyot bilan to'la bo'lib, yumor, tanqid yoki muhabbat kabi tuyg'ularni yetkazadi;

qisqargan va metaforali shakl: bu frazalar ko'pincha qisqartmalar, metaforalar yoki idiomatik ifoda asosida tuzilgan;

jamiyatga xoslik: ayrim birliklar muayyan ijtimoiy guruh yoki avlod tiliga xosdir.

Funksiyalari va ahamiyati haqida aytadigan bo'lsak, pasaytirilgan frazeologik birliklar so'zlashuvda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

nutqni real va tabiiy ko'rsatadi;

gapiruvchining yoshi, ijtimoiy pozitsiyasi yoki munosabatini ko'rsatadi;

adabiy tekstlarda personaj nutqini reallashtirishda xizmat qiladi;

ko'pincha axborotdan ko'ra emotiv-ekspressiv axamiyatga ega bo'ladi.

Kollokvial frazeologizmlarning zamonaviy tendensiyalari, XX asr oxiri va XXI asr boshlarida fransuz tilida "demokratizatsiya", ya'ni norma meyorlarining

yumshatilishi kuzatildi. Bu jarayonda avvalambor, argo va jargon ifodalar omma tiliga singib bordi; lug'atlar bu frazalarni ro'yxatga kirita boshladi (masalan, Le Petit Robert, Larousse); internet va ijtimoiy tarmoqlar bu jarayonni tezlashtirdi.

Xulosa va takliflar. So'zlashuv-pasaytirilgan frazeologik birliklar tilning dinamikasini, jonliligini va jamiyatdagi lingvistik o'zgarishlarni ifoda etadi. Ular til o'rganuvchilar uchun nafaqat grammatik meyorlarni emas, balki tilning ruhini ham his qilish imkonini beradi. Shu bois, bu turdagi frazeologizmlarni o'rganish va tushunish til kompetensiyasining muhim qismi hisoblanadi.

Kollokvial leksikaning ijtimoiy va funksional bir-biriga bog'liqligi hozirgi tadqiqotlarni pragmatik o'rganishning sohasiga yo'naltiradi, pragmatik o'rganish deganda biz so'zlovchi tomonidan samarali kommunikatsiyani amalga oshirish uchun ma'lum belgini tanlashga ko'maklashadigan shart-sharoitlarni ko'rib chiqishni tushunamiz.

ADABIYOTLAR

1. Балли Ш. Французская стилистика / Ш. Балли. - М., 1961. - 394 с.
2. Девкин В.Д. Немецко-русский словарь разговорной лексики. Автор: В.Д.Девкин. Словарное издательство ЭТС. М., 1974, С3.
3. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. T.: Noshir.2019.168 b.
4. Otaqulov N.B. Kollokvial frazeologizmlar va ularning nutqiy munosabatdagi o'rni. O'zMU Xabarlari, 2024, 1/1/6.
5. Otaqulov N.B. Kollokvial frazeologizmlarning o'ziga xos xususiyatlari. O'zMU Xabarlari, 2024, 1/6, 334-336 b.
6. Отакулов Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал фразеологизмларнинг лисоний хусусиятлари. Монография/Н.Б.Отакулов. – Тошкент: “Grandkondorprint”, 2024. – 41 б.
7. Отакулов Н.Б. Субколлоквиал фразеологик бирликларининг семантик хусусиятлари. ЎзМУ Хабарлари, 2023, 1/10/1, 297 б.
8. Отакулов Н.Б. Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал зоофразеологизмлар. ЎзМУ Хабарлари, 2023, 1/10, 276 б.
9. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Т.: 2008. 318 б.
10. Скребнев Ю.М. Введение в коллоквиалистику / Ю.М. Скребнев. - Саратов: Изд-во Саратовск. ун-та, 1985. - 210 с.
11. Хомяков В.А. Введение в изучение сленга - основного компонента английского просторечия / В. А. Хомяков. - Вологда, 1971. - 104 с.
12. Armengaud F. La pragmatique. P.: Que sais-je ?– 1995.–125p.
13. Ducrot O. Dire et ne pas dire. Principes de sémantique linguistique. P. : Hermen . – 1980.– p. 279-305.
14. Calvet L.-J. L'argot / Presses Universitaires de France, 1999.- 128p.
15. Colin J.-P. Dictionnaire de l'argot français et de ses origines / J.-P. Colin, J.-P. Mevel, C. Leclerc. P.: Larousse, 2001. - 908p.
16. François-Geiger D. Dictionnaire de l'argot français et des ses origines. P.: Larousse, 2001.-p. 875-883.
17. Gadet F. Le français populaire. P.:Presses Universitaires de France, 1997.-128 p.
18. Recanati F. Le développement de la pragmatique / Langue française.–1979.–№ 42.– p. 6-20.
19. Rey I.G. La phraseologie du français / I.G. Rey. Toulouse: Presses Universitaires du Mirail, 2002. – 268 p.
20. Searle J. R. Les actes de langage. P. : Hermann.– 1972.– 234 p.